



## **O'ZBEK TILI LEKSIKASIDA IJTIMOIIY DIALEKTLAR VA ULARNING IFODAVIY MA'NO XUSUSIYATLARI**

**Jalilova Jasminabonu Dilshodbek qizi**

*Andijon davlat chet tillar instituti 1- bosqich (Filologiya va tillarni oqitish:  
rus tili).*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada o'zbek tilidagi ijtimoiy dialektlar umumxalq tilining muayyan leksik qatlami sifatida ko'rib chiqiladi. Unda ayniqsa, qo'llanilishi cheklangan, biroq tez-tez uchraydigan so'zlarning ekspressiv ma'no xususiyatlari, ularning ijobiy yoki salbiy ma'no ohanglariga ega bo'lishi hamda badiiy adabiyotlarda qanday vazifani bajarishi haqida mulohaza yuritiladi.*

**Аннотация:** *В данной статье рассматриваются социальные диалекты узбекского языка как специфический лексический пласт национального языка. В частности, рассматриваются экспрессивно-значимые свойства слов с ограниченным, но частым употреблением, имеют ли они положительную или отрицательную коннотацию и какую функцию они выполняют в художественной литературе.*

**Abstract:** *This article examines social dialects in the Uzbek language as a specific lexical layer of the national language. It focuses on the expressive semantic properties of words with limited but frequent use, their positive or negative connotations, and their function in literary works.*

**Kalit so'zlar:** *Leksik qatlam, ijtimoiy dialektlar, ekspressiv ma'no, ma'no ottenkalari, varvarizmlar, vulgarizmlar.*

**Ключевые слова:** *Лексический пласт, социальные диалекты, экспрессивное значение, оттенки значения, варваризмы, вульгаризмы.*

**Key words:** *Lexical plastic, social dialects, expressive meaning, ottenki meaning, barbarism, vulgarism.*



Ilmiy va o'quv adabiyotlarida "ijtimoiy dialektlar" atamasiga tez-tez duch kelamiz. Ushbu termin odatda adabiy til me'yorlariga to'liq javob bermaydigan, tilning norasmiy, og'zaki shakllarida ko'proq qo'llaniladigan ko'rinishlari sifatida izohlanadi. Ya'ni, ijtimoiy dialektlar muayyan ijtimoiy guruhlar, kasb egalari, yosh yoki hududiy jamoalarga xos bo'lgan leksik birliklar majmuasidir. Ular rasmiy uslubdan farq qilgan holda, ko'pincha og'zaki nutqda faol qo'llaniladi va adabiy til me'yorlarini buzadi, deb qaraladi. Shunga qaramay, ko'plab ilmiy manbalarda ijtimoiy dialektlarga faqat til me'yoridan chekinish sifatida emas, balki tilning tabiiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydigan, adabiy tilni boyituvchi va uning ayrim jihatlarini yoritib beruvchi vosita sifatida ham yondashuvlar mavjud. Bunday qarashlarga ko'ra, ijtimoiy dialektlar til tizimining bir bo'lagi bo'lib, ular orqali insonlarning kundalik hayoti, kasbiy faoliyati, madaniy va ijtimoiy tajribalari ifodalanadi. Ayniqsa, badiiy asarlarda bu kabi dialektlar obraz yaratish, xarakter ochish, realizmni kuchaytirish va hayotiylikni oshirish vositasi sifatida keng foydalaniladi.

Ijtimoiy dialektlar umumxalq tilining muayyan qatlamini tashkil etadi. Shu sababli ham bu hodisa haqida tilshunoslik adabiyotlarida turli yondashuv va qarashlar mavjud. Ayniqsa, rus tilshunosligida V. Jirmunskiy, B. Serebrennikov va V. Avrorin kabi olimlar ijtimoiy dialektlar masalasida o'z fikr-mulohazalarini bildirganlar. O'zbek tilshunosligida esa bu yo'nalishda S. Ibragimov, E. Begmatov, A. Sobirov, D. Abdurahmonov kabi tadqiqotchilarning ishlari alohida e'tiborga loyiq. Ijtimoiy dialektlar odatda jamiyatning ma'lum ijtimoiy guruhlariga, xususan, kasb egalari, yosh toifalari yoki ijtimoiy mavqega ega shaxslarga xos bo'lgan leksik birliklardan iborat bo'ladi. Bu haqda ko'plab tilshunos olimlar turli nuqtai nazar bildirishgan. Jumladan, rus tilshunosi B. Serebrennikov ijtimoiy dialektlarni an'anaviy dialektlar emas, balki ijtimoiy nutq variantlari yoki nutq uslublari sifatida talqin qiladi. Shu bilan birga, u bu nutq shakllarini ijtimoiy dialektlar deb tan olgan holda, ularning fonetik tizimi va grammatik qurilishi jihatdan adabiy tildan sezilarli darajada farq qilishini ta'kidlaydi. Shu bois, ijtimoiy dialektlar nafaqat ijtimoiy nutq variantlari, balki nutq uslublari sifatida ham til tizimida muhim o'ringa ega bo'lib,



ular fonetik, leksik hamda grammatik xususiyatlari bilan adabiy til me'yorlaridan ajralib turadi. Bunday leksik qatlamlarni o'rganishda esa, ijtimoiy hayot tarzining turli qonuniyatlari, ijtimoiy guruhlararo muloqot va til funksiyalarining o'ziga xosligi inobatga olinadi. Demak, ijtimoiy dialektlar til taraqqiyoti va ijtimoiy muloqotning ajralmas qismi sifatida ilmiy yondashuvni talab etadi. Albatta, bu masalalarni chuqur va har tomonlama o'rganish til taraqqiyotining dastlabki bosqichlaridan to bugungi kungacha bo'lgan rivojlanish jarayonini yoritishga xizmat qiladi. Shu bois, ijtimoiy-dialektal qatlamni til taraqqiyotining har bir bosqichiga xos hodisa sifatida alohida qayd etish muhimdir. Ma'lumki, o'zbek tilining leksik tizimida ijtimoiy dialektlar jamiyatning turli tabaqalari vakillariga xizmat qiladi. Ular insonlarning ijtimoiy kelib chiqishi, urf-odatlarini, an'analari, kasbiy faoliyati kabi jihatlarni ochib berishda muhim tiliy manba hisoblanadi. Shu bilan birga, ijtimoiy dialektlar adabiy til, hududiy dialektlar va og'zaki so'zlashuv tili bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, ijtimoiy dialektlar aynan tilning ushbu shakllari asosida shakllanadi. Ular alohida shaxslar yoki ijtimoiy guruh vakillarining kasbga oid dunyoqarashi, xatti-harakatlari va o'ziga xos belgilarini o'rganishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Demak, ijtimoiy dialektlar jamiyatning turli tabaqalariga mansub kishilar va ularning ijtimoiy hayotdagi o'rnini ifodalovchi muhim lingvistik vositalardandir.

Shu o'rinda tilimizda adabiy til me'yorlariga to'g'ri kelmaydigan, lekin amalda mavjud bo'lgan til qatlamlari ham borligini ta'kidlash lozim. Ular noadabiy til vositalari deb ataladi. Noadabiy til vositalari deganda, adabiy til uslubiga xos bo'lmagan, umumxalq so'zlashuv tilida kam yoki deyarli qo'llanilmaydigan til birliklari tushuniladi. Agar noadabiy til vositalarini leksikologik jihatdan tasniflasak, bu hodisaning mohiyati yanada ravshanlashadi. Chunki tildagi mavjud so'zlar qo'llanish doirasi nuqtai nazaridan har xil bo'ladi: ularning bir qismi keng omma tomonidan ishlatilsa, boshqa bir qismi faqat ma'lum kasb egalari yoki muayyan hududda yashovchi kishilar tilida uchraydi.

Shu asosda o'zbek tili leksikasini ikki asosiy toifaga ajratish mumkin:

1. Umumiy iste'molda bo'lgan leksika;



## 2. Qo'llanilish doirasi cheklangan leksika.

Umumiy iste'molda bo'lgan leksikaga keng omma uchun tushunarli bo'lgan, turli soha va hududlarda baravar ishlatiladigan so'zlar kiradi. Bu toifadagi so'zlar har xil mintaqalarda va faoliyat sohalarida qo'llanilsa-da, ularning ma'nosi barcha uchun ochiq va tushunarli bo'lib qoladi. Bunga qarama-qarshi tarzda, iste'mol doirasi cheklangan leksika faqatgina ma'lum ijtimoiy guruhlar, kasb egalari yoki muayyan hududlarda yashovchi kishilar tomonidan qo'llanadi. Bu so'zlar odatda insonning ichki dunyosi, fe'l-atvori yoki ijtimoiy mavqei bilan bog'liq bo'lib, umumiy til muomalasida kamroq qo'llaniladi. Bu soha tilshunoslikda hali to'liq o'rganilmagan va ilmiy jihatdan to'liq yoritilmagan. Shu sababli, bu masala dolzarb va ilmiy izlanishlar uchun muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Biz aynan iste'mol doirasi cheklangan leksikaning bir qismi bo'lgan varvarizm va vulgarizmlarni hozirgi o'zbek tilida qanday qo'llanayotganini va ularning lingvistik ahamiyatini ilmiy asoslar bilan tahlil qilishni maqsad qilganmiz. Ushbu so'zlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, ular ma'lum bir joyda yashab, vaqt o'tishi va muhit o'zgarishi bilan semantik jihatdan o'zgarishga uchraydi. Ko'p hollarda, bunday so'zlar faqat ma'lum bir davrga xos bo'lib, ayn o'sha sharoitlarda qo'llanadi. Qiziqarli jihati shundaki, bunday leksik vositalar faqat ijtimoiy guruhlar orasida emas, balki keng aholi tomonidan ham ishlatiladi.

Badiiy asarlardagi yozuvchi uslubi tilshunoslar va tadqiqotchilar uchun murakkab va muhim vazifa hisoblanadi. Ulug' rus tanqidchisi M.T. Chernishevskiy shunday degan edi: "Badiiylik shundan iboratki, har bir so'z faqat o'z o'rnida turishigina emas, balki zarur bo'lishi, iloji boricha kam so'z ishlatilishi kerak." Davr talabi va ijodkorning tilga bo'lgan talabchanligi, aytmoqchi bo'lgan fikrini keng ommaga yetkazish uchun muhimdir. Yangi adabiyot vazifalarini va jamiyatdagi o'rnini tushungan ijodkor, tasvirlayotgan har bir personajning nutqini sodda, xalqchil va leksik vositalarga boy bo'lishiga intiladi. Bunday holatda, uning badiiylik darajasi yanada yuqori bo'ladi. Ma'lum bir tushunchani yoki voqelikni ifodalovchi, qo'shimcha emosional va ekspressiv rang-baranglikka ega bo'lgan so'zlar intellektual leksika deb ataladi. Masalan, yer, suv, havo, kitob, qalam,



shamol, qizil kabi soʻzlar va baʼzi ijtimoiy-siyosiy hamda umumadabiy leksikaga oid terminlar intellektual leksikaga kiradi. Oʻzbek tili leksikasida ekspressiv va emotsional maʼno ifodalaydigan soʻzlar koʻplab uchraydi. Masalan: qizaloq, jonginam, sadagʻangga ketay, xumpar, tajang, badbashara, nomard, yaramas kabi soʻzlar bunday soʻzlarga misoldir. Bu soʻzlarni jamiyatning turli sohalarida koʻrishimiz mumkin. Ekspressiv soʻzi lotincha "exresso" soʻzidan kelib chiqib, "maʼnodor" yoki "taʼsirli maʼnolar" degan maʼnolarni anglatadi. Emotsiya esa lotinchadan olingan boʻlib, kishining his-tuygʻusi, kechinmalari va hissiyoti bilan bogʻliq boʻladi. Shunga koʻra, soʻzlar faqat voqea yoki tushunchani ifodalashdan tashqari, hurmat, erkalash, koʻtarinkilik, mensimaslik, masxara, kinoya kabi emotsional va ekspressiv maʼnolarni ham taqdim etadi. Bu soʻzlarni ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Ijobiy maʼno ottenkasiga ega boʻlgan soʻzlar, masalan, erkalash, suyish, xushmuomalalikni ifodalovchi soʻzlar (shirinim, boʻtaloq, bolajon, koʻp yashang) hamda tantanali yoki poetik soʻzlar: alp (pahlavon), lofchi (yolgʻonchi), oyday toʻlishgan (goʻzal) kabi soʻzlar.

2. Salbiy maʼno ottenkasiga ega boʻlgan soʻzlar, bu esa odatda mana shu turdagi emotsional va ekspressiv tasvirlarni oʻz ichiga oladi.

Salbiy maʼno ottenkasiga ega boʻlgan soʻzlar, asosan jirkanish, mensimaslikni ifodalovchi soʻzlardir. Masalan: zumrasha, soʻtak, juvonmarg, gazanda kabi soʻzlar bunday guruhga kiradi. Bu soʻzlar orasida vulgarizmlar ham mavjud boʻlib, ular jonli xalq tilida qoʻllaniladigan dagʻal, qoʻpol, stilistik jihatdan rang-barang boʻlgan til qatlamlariga mansubdir. Vulgarizmlar badiiy adabiyotda yozuvchilar va shoirlar tomonidan personajlarning ichki dunyosini tasvirlashda, ularning xulq-atvori va atrofdagilarga boʻlgan munosabatlarini ochib koʻrsatishda ishlatiladi. Bunday soʻzlar orqali ijodkor oʻz asaridagi davrni va qahramonlarga boʻlgan munosabatini salbiy yoki ijobiy tarzda ifodalashi mumkin. Masalan, T. Malikning "Shaytanat" asaridan keltirilgan misolda yozuvchi qahramonining nafratini vulgar soʻz bilan ifodalagan. Badiiy asarlarda vulgarizmlar turli shakllarda ishlatiladi: sodda, birikmali va semantik jihatdan haqorat, qargʻish, dagʻal soʻzlar



sifatida. Sodda vulgarizmlar bir o‘zakdan tashkil topgan so‘zlardir. Misol tariqasida Amir Olimxondan keltirilgan razil, pastkash, iflos odamga bo‘lgan nafratni ta’riflovchi misolni keltirish mumkin.

O‘zbek tilining lug‘at tarkibi juda boy va xilma-xildir. Har bir davrda tilning lug‘aviy qatlamlari, grammatikasi va strukturasida o‘zgarishlar ro‘y beradi, bu esa har bir davr tilining o‘ziga xos xususiyatlarini va normalarini shakllantiradi. Hozirgi vaqtda til va badiiy adabiyot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shu sababli, biz ko‘rib chiqqan leksik vositalar nafaqat tilning, balki adabiyotning o‘rganish obyekti hamdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek tilining leksik qatlamlari. – T: Fan, 1985 y.
2. Begmatov E. Boboyeva. A. Asamiddinova M. Nutq madaniyati va adabiy norma. – T: Fan, 1973 y.
3. Jo‘rayev B. O‘zbek adabiy tili va o‘zbek dialektlari, Toshkent, 1963.
4. Tojiyev Y. O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyati asoslari- T 1994.
5. Shomaqsudov A. O‘zbek tili stilistikasi. – T. 1981.
6. Jo‘rayev B. O‘zbek adabiy tili va o‘zbek dialektlari, Toshkent, 1963 y.
7. Tursunov U va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili, Toshkent, 1992.